RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASIGA DOIR BAJARILGAN TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

Kamolova Dilshoda Odilovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Texnologik ta’lim kafedrasi
Stajyor-o‘qituvchisi
Sayfullayeva Nafisa Izzatullo qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga keng imkoniyatlarni amalga oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash” muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Tayanch so’zlar: texnologiya, universal muloqot, didaktika, klassifikastiya, diopozitiv , proeksion, Ekspluatastion ko’rsatma, kartoteka, videomaterial, audio-vizual.

Аннотация: В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан «продолжаем путь к дальнейшему совершенствованию системы непрерывного образования, реализации широких возможностей по предоставлению качественных образовательных услуг, подготовке высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями труда». рынок» как важные задачи определены.

Ключевые слова: технология, универсальная коммуникация, дидактика, классификация, слайд, проекция, инструкция по эксплуатации, картотека, видеоматериал, аудиовизуальный материал.

Abstract: In the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan, "continuing the path to further improvement of the continuous education system, implementing wide opportunities for quality education services, training highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the labor market" as important tasks defined.

Key words: technology, universal communication, didactics, classification, slide, projection, operating instructions, card file, video material, audio-visual.

Kompyuterlashtirilgan o’qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o’qitishdir. O’qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televidenie, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o’qitish g’oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy

kompyuterlar va telekommunikastiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikastion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ilmiy-texnik axborotning ko'chkisimon o'sishi bilan belgilanadi. O'quvchilarning individual tabiiy qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha maksimal darajadagi axborotni o'zlashtirish faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni o'qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o'quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi mazmun jihatdan kompyuter xotirasiga kiritilgan pedagogik dasturiy vositalar bilan farqlanadi.Dasturiy vositalar mavzu, bo'lim yoki butun o'quv fani bo'yicha tuzilishi mumkin va o'quv materiali o'zlashtirilishi diagnostikasi baholashni va monitoringini ham o'z ichiga oladi. Kompyuterli o'qitish texnologiyasining samaradorligi dasturiy vositalarning ishlab chiqilish darajasi bilan bir qatorda o'quv jarayonini va ishchi o'rinlarini to'g'ri tashkil etilganiga bog'liq bo'ladi.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasida quyidagilar zarur hisoblanadi: individual o'qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o'tkazish; o'quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasida o'qitish stiklining qayta takrorlanishi eng samarali ta'minlanadi.

Didaktik vosita nima? Bu savolga javob berish uchun biz avvalo «vosita» so'zining ma'nosini esga olaylik. Yuqorida aytib o'tganimizdek biror bir ishni sifatli va samarali amalga oshirishimiz uchun biz albatta tegishli vositalardan foydalanamiz.

Ta'lim berishda ham didaktik vositalardan foydalanamiz. Pedagogika kursidan bizga ma'lum bo'lgan didaktika, ya'ni grekcha «didaktos» so'zidan olingan bo'lib, ta'lim bermoq yoki ta'lim nazariyasi degan ma'noni anglatishini esga olishning o'zi kifoya. Didaktik vositalar - bizga tanish, hayotimizda uchraydigan, hatto biz foydalanib yurgan vositalar bo'lishi mumkin. Ya'ni ularning hammasi ham aynan ta'lim berish uchun ishlab chiqarilgan vosita bo'lishi shart emas. Shu jihatdan olganda didaktik vositalardan foydalanishni o'rganish osonroq. Faqat qo'llanilayotgan vositaning didaktik imkoniyatlarini aniqlab olish zarur. Masalan: televidenieni olsak, u turmushimizda dam olish uchun qo'llaniladigan maishiy texnik vosita bo'lsa, aholi orasida targ`ibot ishlarini olib borishda ommaviy axborot vositasi hisoblanadi. Lekin undan ta'limda ham keng foydalanayapmiz. Masalan, masofadan turib o'qitishda u didaktik vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

Didaktik vositalar o'quv jarayonida muhim o'rin tutadi. Chunki ular o'quv jarayonining asosiy tashkil etuvchi vositalaridan biri hisoblanadi. Didaktik

vositalar o’quv jarayonida o’qituvchilarning eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. Didaktik vositalardan o’quv jarayonida quyidagilardan foydalaniladi:

- nazariy mashg`ulotlarda o’quvchilarga yangi bilimlarni berish uchun mavzuga doir o’quv materiallarini tushuntirish, namoyish qilish, tahlil qilishda;

- amaliy mashg`ulotlarda o’quvchilarga tanlagan kasblariga oid vazifalarni bajarishga doir malaka va ko’nikmalarni shakllantirish uchun bajariladigan ishni namuna sifatida amalga oshirish, mashq qilishda;

- nazorat mashg`ulotlarida o‘quvchilarning bilimlarini baholash uchun turli testlar va dasturlardan foydalanishda.

Bundan tashqari auditoriyadan tashqari ishlarni olib borishda va turli tadbirlarni o’tkazishda ham didaktik vositalarsiz ko’zlangan maqsadga erisha olmaymiz.

Endi bir tasavvur qilib ko’raylik, mashg`ulotda biror bir texnologik mashina yoki jihozning ishlash prinsipi to’g`risida o’qituvchi faqat og`zaki usul bilan qay darajada o’quvchilarga ma’lumotlarni bera olardi. Agar bu ishda o’qituvchi shu texnologik mashina yoki jihozning prinsipial sxemasidan-mi, uning virtual, yoki aynan modelidan-mi, unga doir video materialdan-mi foydalansa, o’quvchilarga uni tushunishlari, tasavvur qilishlari qay darajada oson bo’ladi. Bu ikki vaziyatni solishtirsak natija yaqqol sezilib turadi. Albatta ikkinchi vaziyatda samara yuqori bo’ladi. O’quv jarayonida olib boriladigan mashg`ulotlarda biz faqat og`zaki usul bilan tushuntirish bilan kifoyalanmasdan, barcha turdagi o’quv axborotlaridan foydalanamiz. Bular sonli va yozma ko’rinishda, ovozli va tasviriy ko’rinishda, xajmiy va harakatli ko’rinishda, elektron va boshqa ko’rinishlarda bo’lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda biz har bir didaktik vositaning imkoniyatlarini bilib olsak, ularning qay biridan qaysi vazifani, qanday amalga oshirishda foydalanish samaraliroq ekanini bilib olamiz. Buning uchun biz avvalo didaktik vositalarning klassifikastiyasi bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi.

Didaktik vositalarning klassifikastiyasi. Avvalo biz didaktik vositalarni uch yo’nalishga ajratamiz. Bular didaktik materiallar, ulardan foydalanish uchun qo’llaniladigan didaktik vositalar, hamda didaktik materiallar va vositalar yordamida ta’limni amalga oshirish uchun loyihalangan majmualar. Har bir yo’nalish bo’yicha ularning tegishli turlari bor.

O’quv mashg`ulotlarida o’quvchilarga beriladigan, namoyish qilinadigan, bajarib ko’rsatiladigan va shunga o’xshash barcha turdagi o’quv axborotlarini biz didaktik materiallar deymiz. Ularni qachon va qay maqsadda qo’llashimizga qarab ularni alohida guruhlarga ajratib chiqamiz (1-rasmga qarang).

Shundan kelib chiqqan holda biz mashg`ulot davomida bir necha turdagi didaktik materiallarni qo’llaymiz, buning uchun tegishli didaktik vositalardan

foydalanamiz. Bular esa birgalikda shu mashg`ulot uchun tuzilgan didaktik vositalari majmuasi hisoblanadi.

Endi qisqacha didaktik vositalar to'g`risida mulohaza yuritsak. Har bir vazifani amalga oshirishda, yaxshi samaraga erishish uchun biz unga kompleks, ya'ni majmuiy yondoshishimiz maqsadga muvofiqdir. Shudan kelib chiqqan holda biz ham mashg`ulot davomida beriladigan o'quv axborotlarini majmua tuzgan holda bersak ishimiz ancha samarali kechadi. Masalan, o'rganilayotgan mavzu biror bir texnologik mashina yoki jihozning ishlash prinsipi to'g`risida bo'lsa, unga doir ma'lumotlarni berishda biz avvalo uning prinsipial sxemasidan foydalanib, uning tuzilishi to'g`risida boshlangich va umumiy ma'lumotlarini beramiz. Uning modelidan foydalanib esa qanday detallardan tuzilganligi, geometrik shakli va o'lchamlari to'g`risidagi ma'lumotlarni beramiz. Mavzuga doir videomateriallar yordamida esa uning ishlab chiqarishdagi o'rni, ishlash prinsipi, qanday texnologik jarayonlarni amalga oshirishi kabi konkret ma'lumotlarni beramiz. Natijada biz texnologik mashinaning ishlash prinsipini o'rganish mavzusiga doir didaktik vositalar majmuasiga ega bo'lamiz. Bu tuzgan majmuamiz:

- texnologik mashinaning prinsipial sxemasi, diopozitivi va proeksion vositasidir;
- texnologik mashinaning funksional modeli va uni namoyish qilish uchun stol, tok manba va h.k.z. lardan iborat moslamasi;
- texnologik mashinaga oid videomaterial va video ikkilikdan tashkil topgan namoyish qilish ish o'rnidan iborat bo'ladi.

Nazariy darslarni o'tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar beriladi va quyidagi vositalar ishlatiladi:

Turi	**Ishlatish uchun ko'rsatmalar**
O'quv kitoblari	Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritiladi
Tarqatma materiallar	O'quv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko'paytiriladi.
Doska tasvirlari	Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash
Slaydlar	Ular nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi
Modellar	Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli – ham yaxshi ham yomon mahsulotlar ko'rsatilishi lozim.

Amaliy mashg`ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi

Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
Texnik chizmalar (kinematik sxemalar, konstruktiv chizmalar)	buning uchun asl nusxalari maxsus jildlarda to'planadi.
Ekspluatastion ko'rsatmalar	nusxalardan tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlatiladi.
Ish rejalari va boshqa xujjatlar	faqat nusxalar ishlatiladi, asl nusxalar esa toza saqlanadi
Modellar, real jihozlar asboblar va mahsulotlar	yaroqli va yaroqsiz jihozlar, yaxshi va yomon mahsulotlar sifatiga nisbatan yuzaga kelgan farqni ko'rsatib berish mumkin.

O'quv-didaktik materiallarini tayyorlash uchun amaliyot o'qituvchisining vazifasi birinchi galda kutubxonalarda maxsus sohaga tegishligini materiallar borligini tekshirish.

Agar o'quv va didaktik materiallar mavjud bo'lsa, u holda ularning fan o'quv maqsadlari va mazmunlariga mos kelish-kelmasligini tekshirishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi PQ-1740-sonli "O'zbekiston Respublikasida "Elektron ta'lim" milliy tizimini yaratish investistiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. Hayitov A.G'. Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi hamda amaliyoti: Ped.fan.dokt. … diss. - Toshkent, 2006. - 244 b.

3. Eldasheva G.V. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2006. 124 b.

4. N.I. Sayfullayeva, "Talabalarga texnologik ta' lim yo 'nalishini o 'qitishda virtual labaratoriyaning o 'rni " Journal of new century innovations_Volume-33_Issue-1

5. Расулова З.Д. Технологик таълим йўналиши ихтисослик фанлари бўйича ўқув жараёнининг электрон-дастурий ва методик таъминоти // "Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар" республика илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро, 2021. - 157-160 б.

6. Сайфуллаева.Д.А., Тошпулатова.М.Б.. Предпосылкимашинного проектирования и разверток деталей одежды с использованием ЭВМ. Наука, техника и образование Научно-методический журнал. - Москва, 2016. № 2 С.